

AHOLINING TURLI GURUHLARI BILAN IJTIMOIIY ISHNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIIY YONDASHUVLARI

Adizova Marjona Mirazizovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholining turli guruhlar bilan ijtimoiy ishni tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari, zamonaviy yondashuvlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Aholining bolalar va yoshlar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar hamda murakkab hayotiy vaziyatga tushgan oilalar kabi guruhlarining o'ziga xos ijtimoiy ehtiyojlari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida ijtimoiy ishni "ehtiyojni aniqlash – xavf va resurslarni baholash – individual xizmat rejasini ishlab chiqish – kompleks aralashuv – monitoring va ijtimoiy natijani baholash" bosqichlari asosida tashkil etuvchi differensial model taklif qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ish, aholi guruhlar, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy himoya, ehtiyoj, ijtimoiy xavf, keys-menejment, individual yondashuv, ijtimoiy hamrohlik

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ С РАЗЛИЧНЫМИ ГРУППАМИ НАСЕЛЕНИЯ

Адизова Маржона Миразизовна – независимый исследователь

Бухарского государственного университета

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы, современные подходы и практические механизмы организации социальной работы с различными группами населения. Систематизированы специфические социальные потребности таких групп населения, как дети и молодежь, пожилые люди, лица с инвалидностью, малообеспеченные семьи, безработные, лица, пострадавшие от давления и насилия, а также семьи, оказавшиеся в трудной жизненной ситуации. В результате исследования предложена дифференцированная модель организации социальной работы, основанная на этапах: «выявление потребностей – оценка рисков и ресурсов – разработка индивидуального плана услуг – комплексное вмешательство – мониторинг и оценка социальных результатов».

Ключевые слова: социальная работа, группы населения, социальные услуги, социальная защита, потребность, социальный риск, кейс-менеджмент, индивидуальный подход, социальное сопровождение.

MODERN APPROACHES TO ORGANIZING SOCIAL WORK WITH DIFFERENT POPULATION GROUPS

Adizova Marjona Mirazizovna – Independent Researcher at
Bukhara State University

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations, modern approaches, and practical mechanisms for organizing social work with different population groups. The specific social needs of such groups as children and youth, older people, persons with disabilities, low-income families, unemployed people, victims of pressure and violence, and families facing difficult life circumstances are systematized. As a result of the study, a differentiated model for organizing social work is proposed, based on the following stages: “needs identification – assessment of risks and resources – development of an individual service plan – comprehensive intervention – monitoring and evaluation of social outcomes.”

Keywords: social work, population groups, social services, social protection, needs, social risk, case management, individualized approach, social support

Kirish. Ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, demografik o‘zgarishlar, migratsiya jarayonlari, bandlik shakllarining yangilanishi, oilaviy munosabatlardagi o‘zgarishlar hamda aholining ayrim qatlamlarida ijtimoiy xavflarning kuchayishi professional ijtimoiy ishga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda.

Xalqaro Ijtimoiy Xodimlar Federatsiyasi va Ijtimoiy Ish Maktablari Xalqaro Assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilingan ta’rifga ko‘ra, ijtimoiy ish ijtimoiy o‘zgarish va rivojlanishni, ijtimoiy birdamlikni, insonlarning imkoniyatlarini kengaytirishni qo‘llab-quvvatlovchi amaliy kasb va ilmiy fan hisoblanadi. Uning markazida ijtimoiy adolat, inson huquqlari, jamoaviy mas’uliyat va xilma-xillikka hurmat tamoyillari turadi [1]. Ushbu yondashuv aholini faqat “yordam oluvchi” sifatida emas, balki o‘z hayotiy vaziyatini o‘zgartirish imkoniyatiga ega faol subyekt sifatida ko‘rishni talab qiladi. Ijtimoiy ish etikasi ham inson qadr-qimmatini hurmat qilish, diskriminatsiyaga qarshi kurashish, resurslardan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash va xilma-xillikni e’tirof etishni asosiy kasbiy tamoyillar sifatida belgilaydi [2].

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ijtimoiy xizmatlarni professional, manzilli va mahalla darajasiga yaqinlashtirilgan mexanizmlar asosida tashkil etishga qaratilgan institutsional islohotlar amalga oshirildi. 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmonda tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarini tashkil qilish, mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlarni yo‘lga qo‘yish hamda professional ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish vazifalari belgilangan [3]. 2023-yil 28-sentabrdagi PQ-319-son qarorda esa og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan yoki bunday holatga

tushish xavfi yuqori bo'lgan shaxs va oilalarga bevosita mahalla darajasida kompleks professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [4].

Adabiyotlar tahlili. Aholining turli guruhlar bilan ijtimoiy ish olib borish masalasi zamonaviy ijtimoiy ish nazariyasida shaxs, oila va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kompleks o'rganishga asoslanadi. Xalqaro Ijtimoiy Xodimlar Federatsiyasi ijtimoiy ishni ijtimoiy o'zgarish, inson imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy birdamlik va farovonlikni ta'minlashga yo'naltirilgan professional faoliyat sifatida talqin etadi [1; 2]. Mazkur yondashuv aholining ehtiyojmand guruhlar bilan ishlashda inson huquqlari, ijtimoiy adolat, shaxs qadr-qimmatini va individual yondashuv tamoyillarining ustuvorligini belgilaydi.

M.Payne va K.Healy tadqiqotlarida ijtimoiy muammoni faqat shaxsning individual xususiyatlari bilan izohlash yetarli emasligi, bunda oilaviy muhit, ijtimoiy aloqalar, jamoa resurslari va institutsional omillarni ham hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi [8; 10]. Ushbu qarash aholining bolalar, yoshlar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar va boshqa ehtiyojmand guruhlar bilan ishlashda differensial yondashuvni talab etadi. D.Saleebey tomonidan ishlab chiqilgan kuchli tomonlarga asoslangan yondashuvda mijozning faqat muammolari emas, balki uning mavjud resurslari, tajribasi, ijtimoiy aloqalari va imkoniyatlarini aniqlash ham muhim hisoblanadi [9]. Zamonaviy amaliyotda keys-menejment aholining murakkab hayotiy vaziyatdagi guruhlar bilan ishlashning samarali mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi [6].

O'zbekistonda N.M.Latipova va Q.N.Kayumovlarning ilmiy-uslubiy ishlarida ijtimoiy ishning kasbiy, axloqiy va qadriyatli asoslari yoritilgan. Ularda inson qadr-qimmatini hurmat qilish, maxfiylik, individual yondashuv va professional mas'uliyat ijtimoiy xizmatning muhim tamoyillari sifatida ko'rsatiladi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham ijtimoiy xizmatlarni manzilli va kompleks tashkil etishga yo'naltirilgan. PF-82-son Farmon asosida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahalla darajasidagi professional ijtimoiy xizmatlar tizimi shakllantirilmoqda [3].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda tizimli-ekologik, shaxsga yo'naltirilgan, kuchli tomonlarga asoslangan va keys-menejment yondashuvlari yetarlicha asoslangan. Biroq aholining turli guruhlarini ularning ehtiyoji, xavf darajasi, mavjud resurslari va mustaqil faoliyat imkoniyatlari asosida yagona differensial mexanizm doirasida tashkil etish masalasi qo'shimcha ilmiy asoslashni talab qiladi.



1-rasm. Muammoli ta'lim asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning jarayonli mexanizmi

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlarning konseptual hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlar tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy va qiyosiy tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish, aholining ijtimoiy guruhlarini ehtiyoj va xavf omillari bo'yicha tasniflash, tizimli va ekologik yondashuv, strukturaviy-funksional tahlil hamda konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini ekologik-tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kuchli tomonlarga asoslangan yondashuv, inson huquqlariga asoslangan yondashuv va keys-menejment tamoyillari tashkil etdi. Ekologik yondashuvga ko'ra, shaxsning muammosi faqat individual xususiyatlar bilan emas, balki oila, mehnat muhiti, mahalla, ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy sharoit va davlat siyosatining o'zaro ta'siri bilan izohlanadi [5; 6].

Natijalar va muhokama. Tahlil natijalariga ko'ra, aholining turli guruhlar bilan ishlashdagi asosiy farq shaxslarning yoshi yoki ijtimoiy maqomida emas, balki ularning ehtiyojlari, ijtimoiy xavflari, mustaqil faoliyat imkoniyatlari va foydalanishi mumkin bo'lgan resurslarida namoyon bo'ladi. Shu sababli ijtimoiy ish obyekti sifatida guruhlarini quyidagi tarzda tizimlashtirish maqsadga muvofiq.

1-jadval

Aholining turli guruhlari bilan ijtimoiy ishning differensial yo‘nalishlari

Aholi guruhi	Ustuvor ehtiyoj va xavflar	Asosiy ijtimoiy ish usullari	Kutiladigan natija
Bolalar va yoshlar	Qarov, ta’lim, xavfsizlik, rivojlanish, ijtimoiylashuv	Oila bilan ishlash, profilaktika, maslahat, mentorlik, keys-menejment	Xavfsiz rivojlanish va ijtimoiy moslashuv
Keksalar	Yolg‘izlik, parvarish, sog‘liq, harakatlanish cheklovi	Uyda xizmat, ijtimoiy hamrohlik, patronaj, guruhli ish	Mustaqillik va hayot sifatini saqlash
Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Muhit to‘siqlari, bandlik, ta’lim, reabilitatsiya	Individual reja, reabilitatsiya, advokatsiya, vositachilik	Ijtimoiy integratsiya va mustaqil hayot
Kam ta’minlangan oilalar	Daromad yetishmasligi, qarzдорlik, bandlik muammosi	Keys-menejment, bandlikka yo‘naltirish, resurslarni safarbar etish	Iqtisodiy barqarorlik
Ishsizlar	Daromad yo‘qligi, kasbiy mos kelmaslik, motivatsiya pasayishi	Kasbiy maslahat, yo‘naltirish, motivatsion suhbat	Bandlik va iqtisodiy faollik
Zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Xavfsizlik, psixologik travma, huquqiy himoya	Xavfsizlik rejasi, inqirozli aralashuv, psixososial va huquqiy yordam	Xavfsizlik va reabilitatsiya
Murakkab vaziyatdagi oilalar	Ko‘p omilli muammolar, oilaviy ziddiyat, bolalar manfaatlari	Oila keys-menejmenti, multidisiplinar hamkorlik	Oilaning funksional holatini tiklash

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, maqsadli guruhning nomi ijtimoiy xizmat mazmunini avtomatik belgilamaydi. Professional aralashuv fuqaroning real hayotiy vaziyati, xavf darajasi va mavjud resurslari asosida individual tarzda rejalashtirilishi lozim.

**1-rasm. Aholining turli guruhlari bilan differensial ijtimoiy ish modeli**

Taklif etilayotgan modelda xizmat jarayoni ehtiyojni aniqlashdan boshlanib, xavf va resurslarni baholash, individual rejalashtirish, kompleks xizmatlar, idoralararo hamkorlik va monitoring orqali ijtimoiy integratsiyaga yo‘naltiriladi. Modelning markaziy g‘oyasi yordam oluvchining ijtimoiy tizimga qaramligini kuchaytirish emas, balki uning mustaqilligini tiklashdir (1-rasm).

Bolalar bilan ishlashda bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta’minlash, xavfsiz rivojlanish muhiti yaratish, oilaning tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash va ijtimoiy

yetimlikning oldini olish ustuvor hisoblanadi. Ijtimoiy xodim “bola - oila - ta’lim muassasasi - mahalla - sog’liqni saqlash - ijtimoiy xizmat” tizimi bilan ishlashi zarur. Oiladagi inqiroz, zo’ravonlik xavfi, maktabdan chetlashish yoki ota-onaning tarbiyaviy imkoniyatlari pasaygan holatlarda kompleks baholash alohida ahamiyatga ega. Keksalar bilan ijtimoiy ishning maqsadi faqat parvarish xizmatini tashkil etish emas, balki shaxsning imkon qadar uzoq vaqt mustaqil va faol hayot kechirishiga sharoit yaratishdir.

Nogironligi bo’lgan shaxslar bilan ijtimoiy ishda tibbiy modeldan ijtimoiy va inson huquqlariga asoslangan modelga o’tish muhimdir. Bunda asosiy masala funksional cheklovning o’zi emas, balki shaxsning jamiyatdagi to’liq ishtirokiga to’sqinlik qiluvchi jismoniy, institutsional, axborot va kommunikativ to’siqlarni kamaytirishdan iborat. Ijtimoiy xodim individual reja, reabilitatsiya, advokatsiya va vositachilik orqali mustaqil hayot imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kam ta’minlanganlikni faqat daromadning pastligi bilan izohlash yetarli emas. Ishsizlik, malaka yetishmasligi, turar joy muammosi, salomatlik xarajatlari, qarzdorlik va oilaviy ziddiyat kabi omillar o’zaro kuchayishi mumkin. Shuning uchun moddiy yordam bilan cheklanmasdan, muammo - sabab - mavjud resurs - xizmat - mas’ul subyekt - muddat - natija indikatori zanjiri asosida individual reja ishlab chiqilishi zarur.

Aholining murakkab ehtiyojlari bir tashkilot doirasida to’liq hal etilmaydi. Shu sababli professional ijtimoiy ish mahalla, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi, sog’liqni saqlash, ta’lim va bandlik tizimi, huquqiy himoya institutlari hamda nodavlat va jamoatchilik resurslarining muvofiqlashtirilgan hamkorligiga tayanadi. Mazkur mexanizmning markazida shaxs yoki oila turadi. Har bir subyekt o’z vakolati doirasida alohida xizmat ko’rsatish bilan cheklanmay, yagona individual maqsad va keys-reja asosida hamkorlik qiladi. Natijada xizmatlarning takrorlanishi kamayadi, resurslar muvofiqlashtiriladi va ijtimoiy natijani kuzatish imkoniyati oshadi.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy ishda universal yordam modelidan differensial va shaxsga yo’naltirilgan modelga o’tish zarurligini ko’rsatadi. Bu zamonaviy ijtimoiy ish nazariyalari bilan uyg’un bo’lib, shaxsning muammolarini uning atrof-muhiti, ijtimoiy aloqalari va mavjud resurslaridan ajratmagan holda tahlil qilishni talab etadi [5; 8].

Kuchli tomonlarga asoslangan yondashuvda ijtimoiy xodim mijozning faqat muammosi va cheklovlarini emas, balki uning bilimlari, tajribasi, ijtimoiy aloqalari, oila resurslari, motivatsiyasi va mavjud imkoniyatlarini ham xizmat rejasiga kiritadi [9]. Mazkur yondashuv yordam oluvchining ijtimoiy xizmat tizimiga uzoq muddatli qaramligini kamaytirib, mustaqil qaror qabul qilish va o’z hayotini boshqarish salohiyatini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari aholining turli guruhlar bilan ijtimoiy ishni samarali tashkil etish yagona standart yordam shakllariga emas, balki shaxs yoki

oilaning real ehtiyoji, ijtimoiy xavf darajasi, mavjud resurslari va mustaqil faoliyat imkoniyatlarini hisobga oluvchi differensial yondashuvga asoslanishi zarurligini ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy ishning mazmuni nafaqat mavjud muammoni bartaraf etish, balki uning sabablarini aniqlash, shaxsning ichki va tashqi resurslarini faollashtirish hamda barqaror ijtimoiy moslashuvni ta'minlashga yo'naltirilishi lozim.

Tahlil asosida bolalar va yoshlar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar hamda murakkab hayotiy vaziyatdagi oilalar bilan ishlashda xizmatlarning mazmuni va intensivligi ularning individual holatiga qarab differensiallashtirilishi zarurligi aniqlandi. Bunda keys-menejment, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kuchli tomonlarga asoslangan amaliyot, ijtimoiy hamrohlik va idoralararo hamkorlik ijtimoiy xizmat samaradorligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Federation of Social Workers. Global Definition of Social Work. IFSW, 2014.
2. International Federation of Social Workers. Global Social Work Statement of Ethical Principles. IFSW, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PQ-319-son "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
5. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
6. World Health Organization. Social Determinants of Health. Geneva: WHO.
7. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 18-oktabrdagi O'RQ-977-son Qonuni.
8. Payne M. Modern Social Work Theory. 4th ed. London: Palgrave Macmillan, 2014.
9. Saleebey D. The Strengths Perspective in Social Work Practice. 6th ed. Boston: Pearson, 2013.
10. Healy K. Social Work Theories in Context: Creating Frameworks for Practice. 2nd ed. London: Palgrave Macmillan, 2014.